

## **BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING KASBIY-MA’NAVIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHDA USTOZ–SHOGIRD TIZIMINING AHAMIYATI**

**Sapoyeva Fotima Abdullayevna**

**Nizomiy Nomidagi O‘zMPU, Professional ta’lim va san’at fakulteti**

**Musiqa ta’limi kafedrasi dotsent v/b**

**Nuraddinova Ruxshona Ozodjon qizi**

**Nizomiy Nomidagi O‘zMPU, Professional ta’lim va san’at fakulteti**

**Musiqa ta’limi kafedrasi 1-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy va ma’naviy fazilatlarini shakllantirish jarayonida ustoz–shogird tizimining pedagogik ahamiyati yoritiladi. Musiqa ta’limida ustoz shaxsining namunaviy roli, kasbiy tajribaning shogirdga uzatilishi hamda shogird shaxsida mas’uliyat, ijrochilik madaniyati va pedagogik ongning rivojlanishi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Ustoz–shogird munosabatlari bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy yetukligini ta’minlovchi muhim omil sifatida asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** musiqa ta’limi, ustoz–shogird tizimi, kasbiy fazilatlar, ma’naviy tarbiya, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini tayyorlash jarayoni zamonaviy ta’lim talablariga muvofiq ravishda faqat nazariy bilim va ijrochilik ko‘nikmalarini egallash bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayonda o‘qituvchining kasbiy mas’uliyati, pedagogik madaniyati, estetik didi va ma’naviy fazilatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, musiqa ta’limi estetik va ijodiy yo‘nalish bo‘lganligi sababli, o‘qituvchi shaxsining ma’naviy yetukligi ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ustoz–shogird tizimi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy-ma’naviy shakllanishida samarali pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. Mazkur tizimda ustoz shaxsining kasbiy tajribasi, ijrochilik madaniyati va pedagogik yondashuvi shogird uchun amaliy namuna vazifasini bajaradi.

Ustoz–shogird tizimi tarixan ta’lim va tarbiyaning uzviy shakli sifatida shakllangan bo‘lib, musiqa ta’limida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimda bilim va ko‘nikmalar bevosita amaliy faoliyat jarayonida, ustozning shaxsiy namunasi asosida uzatiladi. Musiqa ta’limida ustoz nafaqat bilim beruvchi, balki ijro madaniyati, estetik mezon va pedagogik xulq-atvor namunasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Pedagogik amaliyot jarayonida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ustoz bilan bevosita ishlash shogirdning kasbiy o‘rishini tezlashtiradi,

o'qituvchilik kasbiga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi va kasbiy o'zini anglash jarayonini faollashtiradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisida shakllanishi zarur bo'lgan asosiy kasbiy-ma'naviy fazilatlar qatoriga pedagogik mas'uliyat, ijrochilik madaniyati, estetik did, sabr-toqat, muloqot madaniyati va shaxsiy namunalilik kiradi. Ushbu fazilatlar musiqa darslarining mazmunli va samarali tashkil etilishida muhim omil hisoblanadi. Ustoz–shogird munosabatlari jarayonida shogird o'qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglaydi, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashishni o'rganadi hamda kasbiy yetuklikka intilish motivatsiyasini shakllantiradi. Bu esa bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik refleksiya va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ustoz tajribasining shogird shaxsiga ta'siri

Ustozning kasbiy tajribasi va pedagogik pozitsiyasi shogird uchun muhim o'rganish manbai hisoblanadi. Musiqa ta'limida ustoz tomonidan namoyon etiladigan ijrochilik aniqligi, darsni tashkil etish uslubi va o'quvchi bilan muloqot madaniyati shogird tomonidan ongli ravishda o'zlashtiriladi. Mazkur jarayon bo'lajak musiqa o'qituvchisida kasbiy o'zini anglashni kuchaytirib, kelgusidagi pedagogik faoliyatini rejalashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan qaralganda, ustoz–shogird tizimi faqat an'anaviy tajriba uzatish mexanizmi emas, balki kasbiy identifikatsiya va refleksiv rivojlanish jarayoni sifatida ham talqin etiladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy shakllanishida ustozning roli ijtimoiy-o'rganish modeli asosida tushuntiriladi. Ya'ni, shogird kuzatish, taqlid va mustaqil tahlil orqali kasbiy xulq-atvorni o'zlashtiradi. Musiqa ta'limida bu jarayon ayniqsa muhimdir, chunki ijrochilik va pedagogik mahorat faqat nazariy bilimlar asosida emas, balki bevosita amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Ustoz tomonidan darsni tashkil etish, repertuar tanlash, o'quvchilar bilan individual ishlash uslubi hamda ijro jarayonidagi estetik mezonlar shogird uchun amaliy tajriba maktabi vazifasini bajaradi.

Shuningdek, ustoz–shogird tizimi bo'lajak o'qituvchining kasbiy refleksiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Refleksiya – bu o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va takomillashtirishga intilish jarayonidir. Ustoz tomonidan beriladigan konstruktiv tahlil va tavsiyalar shogirdga tanqidiy fikrlash hamda pedagogik ongning shakllanishiga yordam beradi. Bugungi kunda musiqa ta'limida innovatsion metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interaktiv yondashuvlar keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ustoz–shogird tizimining ahamiyati kamaymaydi. Aksincha, zamonaviy metodlar ustoz tajribasi bilan uyg'unlashgan holda samarali natija beradi. Chunki texnologiya vosita bo'lsa, ustoz shaxsiyati tarbiyaviy ta'sirning asosiy omili bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, ustoz–shogird tizimi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy-ma’naviy fazilatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu tizim orqali shogird nafaqat musiqa nazariyasi va ijrochilik asoslarini, balki pedagogik mas’uliyat, estetik qarash va kasbiy axloqni ham o‘zlashtiradi. Musiqa ta’limida ustoz–shogird an’alariga tayangan holda tashkil etilgan pedagogik jarayon bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy yetukligi va ma’naviy barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa umumta’lim muassasalarida musiqa ta’limi sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–112-son qarori. — Toshkent, 02.02.2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Umumta’lim maktablari uchun “Musiqa” fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. — Toshkent, 2020.
3. Mannopov S. O‘zbek xalq musiqa madaniyati. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Yo‘ldosheva M. Musiqa ta’limi metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Ahmedov R. Musiqiy ijrochilik asoslari. — Toshkent: Musiqa, 2017.
6. Panjiyev D. Milliy cholg‘u ijrochiligining pedagogik asoslari. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
7. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. — New York: Basic Books, 1983.